



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 5-mart

VII-7-34-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi PF-80-sonli Farmoni ijrosini ta'minlashda davlat organlari va tashkilotlarini faoliyatini muvofiqlashtirish haqida

Aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rib borish, joylarda aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari loyihibarini ishlab chiqish, fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirib borish, davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko'rsatib borish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi PF-80-sonli Farmoniga hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, yetinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi PF-80-sonli Farmoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga asosan:

Kattaqo'rg'on tumanida mahalla fuqarolar yig'inlarida ijro holatini o'r ganiladigan birlamchi minimal standartlar bo'yicha yo'l xaritasi 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilda "Huquqiy mahalla" konsepsiyasini amalga oshiriladigan mahallar ro'yxatini reja grafigi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kattaqo'rg'on tumanidagi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida sifatli ijro etib borsin;

Kattaqo‘rg‘on tumani Adliya bo‘limi boshlig‘i (B.Boymurodov) davlat organlari va tashkilotlari tomonidan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosidan kelib chiqib, tegishli takliflarni ishlab chiqsin hamda Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashiga kirlitsin.

4. Mazkur qarorda aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rib borish, joylarda aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yishga mas’ul davlat organlari va tashkilotlari mazkur qarorda belgilangan chora-tadbirlar va maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini so‘zsiz ta’minlashga shaxsan mas’ul ekanliklari ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashiga har yarim yilda “yo‘l xarita”sida belgilangan chora-tadbirlarning ijrosi yuzasidan mas’ul davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlarini eshitib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin.

6. Kattaqo‘rg‘on tumani Adliya bo‘limi boshlig‘i (B.Boymurodov), Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi deputatlari va mahalliy nashlar bilan hamkorlikda keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali matbuot anjumanlari va brifinglar tashkil qilsin.

7. Kattaqo‘rg‘on tumani hokimining barcha o‘rinbosarlari mazkur qaror ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam ravishda muhokama qilish va tuman hokimligi Ijro intizomi bo‘yicha bosh mutaxassis (A.Mamasoliyev) bilan birgalikda “hokimlik soati”ga ma’lumotlar kiritib borilishini ta’milasın.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi kotibiysi mudiri M.Teshayev hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKNOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
 2025-yil 5-martdagি
 VII-7-34-7-96-K/25 -son qaroriga
 1-ilova

**Mahalla fuqarolar yig‘inlarida ijro holati o‘rganiladigan birlamchi minimal standartlar bo‘yicha
 YO‘L XARITASI**

Nº	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma’sul tashkilot	Muddati*
Turar joy obyektlari standartlari				
1.	Yong‘in depolari va o‘t o‘chiruvchi avtomobilarning belgilangan normada mavjudligi. <i>(ShNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y)</i>	Yong‘in depolari, ming kishi aholisi bo‘lgan punktlarda 1 ta o‘t o‘chiruvchi avtomobil bo‘lishi lozim.	Kattaqo‘rg‘on tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi	Har oy
2.	Aholi punktlarida yo‘l harakati qoidalariiga rioya etilayotganligi hamda yo‘l belgilari o‘rnatalganligi. <i>(VMQ-172-son, 12.04.2022-y) (O‘z DSt 3644:2023 “Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari. Piyodalar o‘tish joylari. Tasnif. Umumiy talablar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti)</i>	<p>Aholi punktlarida transport vositalarining tezligini soatiga 70 kilometrdan, turar joy dahalari va yondosh hududlarda (uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasida) esa soatiga 20 kilometrdan oshirmsadan harakatlanishga ruxsat etiladi.</p> <p>Nukus va Toshkent shaharlarida, viloyatlar va tumanlarning markazlarida, shuningdek shaharlar hududlarida transport vositalarining tezligini soatiga 60 kilometrdan oshirmsadan harakatlanishga ruxsat etiladi.</p> <p>Shuningdek, yer ustki piyodalar o‘tish joyining zinalar va piyodalar harakat yo‘lagi yoritilishi quyidagicha bo‘lishi lozim:</p> <p>kechqurungi rejimda – kamida 15 lx; tungi rejimda – kamida 10 lx.</p> <p>Piyodalar o‘tish joylarini yoritish kunduzgi, kechki va</p>	Viloyat IIB JXX YHXB, Maxsus ekspluatatsiya- montaj bo‘limi, Kattaqo‘rg‘on tumani YHXB, Kattaqo‘rg‘on tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi, Kattaqo‘rg‘on tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Har oy

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
		<p>tungi ish rejimiga ega bo'lishi, bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - kunduzgi rejimda – kamida 50 lx; - kechki rejimda – kamida 20 lx; - tungi rejimda – kamida 10 lx yoritilishi zarur. <p>Yer ustki piyodalar o'tish joyining zinalar va piyodalar harakat yo'lagi yoritilishi quyidagicha bo'lishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - kechqurungi rejimda – kamida 15 lx; - tungi rejimda – kamida 10 lx. <p>Yoritish uchun chiroqlar shikastlanmasligi uchun maxsus konstruksiyalar (shisha, panjara) bilan himoyalangan bo'lishi kerak.</p> <p>Piyodalar o'tish joylari va ularga kirish joylari statsionar elektr yoritish tizimi bilan jihozlanishi, bunda kirish yo'llarining yoritilgan uzunligi quyidagicha bo'lishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> belgilangan harakat tezligi 40 km/s bo'lganda-50 m; belgilangan harakat tezligi 60 km/s bo'lganda-75 m; belgilangan harakat tezligi 90 km/s bo'lganda-150 m. <p>Yoritgichlar GOST 33176-2014 talablariga muvofiq bo'lishi lozim.</p>		
3	Aholi punktlarida elektr uzatish tarmoqlarining xavfsiz joylashtirilganligi. <i>(ShNQ 2.07.01-23, 20.05.2024-y.)</i>	<p>Kuchlanishi 35 kV va undan yuqori bo'lgan havo elektr uzatish tarmoqlari aholi punktlarining turar joy hududlaridan tashqarida o'tkazilishi lozim.</p> <p>Umumiyl o'rta ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hududlarida taqsimlash punktlari va transformator podstansiyalarini joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.</p>	Qoradaryo elektr tarmoqlari korxonasi	Har oy
4	Gaz iste'molchilarining tabiiy gaz va suyultirilgan uglevodorod gazlari bilan ta'minlash holati. <i>(ShNQ 2.04.08-22, 15.04.2024-y.)</i>	<p>Gaz quvurlaridagi berkituvchi qurilmalar binoning tashqarisiga o'rnatilishi lozim.</p> <p>Gaz quvurlarining tayanchli, estakadalar, osma o'tish joylari yonmaydigan materiallardan tayyorlanishi kerak.</p>	Kattaqo'rg'on tumani gaz ta'minoti bo'limi	Har oy

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
Ichimlik suvi va elektr energiya ta'minoti standartlari				
5.	Aholini ichimlik suvi ta'minoti bilan ta'minlanganligi. <i>(ShNQ 2.07.01-23, 20.05.2024 y) (SanQvaN 0200-06, 15.05.2006 y)</i>	<p>Ichimlik suvi ta'minoti ehtiyojlar uchun birinchi navbatda yer usti suv obyektlaridan keyin esa yer osti suv obyektlaridan amalga oshirilishi lozim.</p> <p>Kelajakdagi suv quvurlarida keraksiz murakkab tozalash inshootlarini qurishning oldini olish uchun yer usti va yer osti suv manbalaridan markazlashtirilgan suv ta'minoti uchun tanlangan suv tarkibi quyidagi talablarga javob berishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - quruq qoldiq 1000 mg/l dan ko'p bo'limgan (sanitariya-epidemiologiya xizmati bilan kelishilgan holda 1500 mg/l gacha ruxsat etiladi); - xlorid miqdori - 250 mg/l dan oshmasligi kerak (350 mg/l ruxsat beriladi); - sulfat miqdori - 400 mg/l dan oshmasligi kerak (500 mg/l gacha ruxsat beriladi); - umumiyl qattiqlik – 7 mEq/l dan oshmasligi kerak (10 mEq/l gacha ruxsat beriladi). <p>Sanitariya-epidemiologiya xizmatining suv manbasidan foydalanish imkoniyati to'g'risidagi xulosasi beriladi va 3 yil davomida amal qiladi.</p>	“Samarqand suv ta'minoti” MCHJ Kattaqo'rg'on tumani filiali, Kattaqo'rg'on tumani SEO va JS xizmati	Har oy
Sanitariya-gigienik, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish standartlari				
6.	Markazlashgan kanalizatsiya tarmog'i bo'limgan hududlarda hovli hojatxonalari belgilangan normalarda qurilganligi. <i>(ShNQ 2.07.01-23, 20.05.2024 y)</i>	Markazlashgan kanalizatsiya tarmog'i bo'limgan hududlarda hovli hojatxonalari turar joy va ta'lim muassasalari binolaridan, bolalar va kattalarning dam olish maydonchalaridan 20 metrdan , yakka tartibdagi uy-joy tomorqalarida – 10 metrdan , suv ta'minoti manbai (quduq) gacha esa – 25 metrdan kam bo'limgan masofada joylashtirilishi kerak.	Kattaqo'rg'on tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish	Har oy

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
			masalalari bo'yicha o'rribosari, Kattaqo'rg'on tumani SEO va JS xizmati	
7.	Maishiy chiqindilarni olib ketish imkoniyati yaratilganligi. <i>(VMQ-787-son. 02.10.2018 y)</i>	Jismoniy shaxslar: ko'p kvartirali uylarda – qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi toplash shoxobchalariga joylashtirishda konteynerlarga tashlaydilar; yakka tartibdagи turar joy sektorida – qattiq maishiy chiqindilarni maxsus avtotransport vositasi “ signal” usulida , jadval bo'yicha kelguniga qadar o'z hududlarida saqlaydilar va maxsus avtotransport vositasiga joylashtiradilar. Bunda, maxsus chiqindi qoplari (paketlar) yoki g'ildirakli va zinch yopiladigan qopqoqli konteynerlardan (40 – 120 l) foydalanimishi mumkin.	Kattaqo'rg'on tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, communal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rribosari, Kattaqo'rg'on tumani “Toza hudud” DUK	Har oy
8.	Qattiq maishiy chiqindilarni toplash va vaqtincha saqlash uchun mo'ljallangan maxsus chiqindi qutilari o'rnatilganligi. <i>(VMQ-787-son. 02.10.2018 y)</i>	Hududlar, binolar va inshootlarning qattiq maishiy chiqindilar bilan ifloslanishining oldini olish maqsadida qattiq maishiy chiqindilarni toplash va vaqtincha saqlash uchun mo'ljallangan maxsus chiqindi qutilari o'rnatiladi . Chiqindi qutilari hududlarni tozalash uchun mas'ul bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan majburiy tartibda quyidagilarda o'rnatiladi : - ko'p kvartirali uylarning podezdiga kirish yo'lida – 1 ta ; - tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, tashkilotlar, shuningdek, savdo obyektlarining binosiga kirish (chiqish) yo'lida – 1-2 ta ; - metro, yer osti va yer usti o'tish joylarining har bir kirish (chiqish) yo'lida – 2 ta ; - aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini va hordiq	Kattaqo'rg'on tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, communal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rribosari, Kattaqo'rg'on tumani “Toza hudud” DUK	Har oy

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
		<p>chiqarishini qondirish uchun mo'ljallangan obyektlarda (madaniyat va istirohat bog'lari, o'rmon massivlari, bog'lar, bulvarlar, skverlar, xiyobonlar va boshqalar) — obyektning har 800 m^2 maydonida 1 ta va yo'laklar va yo'laklar chizig'i bo'ylab o'rnatilganda bir-biridan 40 metrdan uzoq bo'limgan masofada;</p> <ul style="list-style-type: none"> - bozorlar va savdo obyektlarida (supermarket, gipermarket va boshqalarda) – obyektning har 250 m^2 maydonida 1 ta va savdo do'konlari qatori bo'ylab o'rnatilganda – bir-biridan 10 metrdan uzoq bo'limgan masofada; - jamoat yo'lovchi transport bekatlarida – 1-2 ta; - avtoturargohlar va avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash maydonchalariga kirish (chiqish) yo'lida – 1-2 ta; - davolash muassasalarining hovli hududida – obyektning har 700 m^2 maydonida 1 ta, asosiy alleyalarda esa – bir biridan 10 metrdan uzoq bo'limgan masofada; - chekish uchun maxsus ajratilgan joylarda – 1-2 ta; - plyajlar va suv akvatoriyalari (daryolar, ko'llar, ko'rfazlar yoki hovuzlar)ga tutash rekreatsiya zonalarida – suv bo'linishidan 15 metr hamda yashil ekinlardan 3–5 metr uzoqlikda joylashtirgan holda, obyektning har 800 m^2 maydonida 1 ta; - ko'p kvartirali uylar atrofidagi hududlarda va markaziy maydonlarda, yo'lkalarda hamda magistral ko'chalarning piyodalar zonasasi bo'ylab, shuningdek, ko'priklarda – hududdan foydalanish intensivligidan kelib chiqib, piyodalar serqatnov hududda – har 50 metrdan oshmagan masofada va odam kam joylarda – har 100 metrdan oshmagan masofada 1 tadan. 		
9.	Dafn etish joylari , ulardan foydalanish	Qabriston uchun ajratiladigan yer uchastkasi maydoni	Kattaqo'rg'on tumani	Har oy

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
	va qabr usti yodgorliklarini o'rnatishga qo'yilgan talablarga rioya etilganligi. <i>(VMQ-101-son, 04.04.2011 y)</i>	<p>mazkur qabriston xizmat ko'rsatiladigan har 1000 kishi hisobiga 0,24 hektarli me'yordan kelib chiqib, shaharsozlik me'yorlari va qoidalariga muvofiq belgilanadi.</p> <p>Qabristonlarni barpo etish uchun maydon hisob-kitobi quyidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - qabriston aholi punktining ularga xizmat ko'rsatish uchun barpo etilayotgan diniy konfessiya aholisining soni va uning ko'payishi istiqbollari; - qabristonning xizmat ko'rsatish davri muddatlari. Qabristondan foydalanish uchun hisob-kitob davri kamida 20 yil bo'lishi va sanitariya-epidemiologiya xizmati hududiy organlari tomonidan qabriston uchastkasidagi tuproq sharoitiga bog'liq holda belgilanishi kerak; - bir dafn yetish uchun to'g'ri keladigan maydon me'yori; - ko'kalamzorlashtirish, qabriston hududida joylashtiriladigan yo'llar, maydonchalar, xiyobonlar, binolar va inshootlar uchun zarur maydon. Dafn etishlar faqat ishlab turgan qabristonlarda, navbat tartibida uchastkalar ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi. <p>Qabriston sektorlarga bo'linganda qabrlar uchun joy uchastkalari, dafn etish zonasini rejalashtirish chizmasiga muvofiq, qatorlarda tartibga rioya yetgan holda, ushbu sektorlar, uchastkalarning birida ajratiladi.</p> <p>Qabristonlarni rejalashtirish loyihamda mahalliy va diniy an'analarni hisobga olgan holda me'moriy hamda obodonlashtirish elementlarini uyg'unlashtirish kerak.</p> <p>Qabristonlar hududlari elementlarining quyidagi nisbatlarda bo'lishiga amal qilish zarur:</p> <ul style="list-style-type: none"> - dafn etish joylari – 75 – 80%; 	<p>hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, communal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rribosari, Kattaqo'rg'on tumani Obodonlashtirish boshqarmasi</p>	

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
		<ul style="list-style-type: none"> - yashil o'simliklar – 15 – 12%; - xiyobonlar, yo'llar va yo'lkalar – 8 – 5%; - xo'jalik hovlilari, ma'muriy binolar, yordamchi qurilmalar – 2-3%. <p>Qabriston hududi majburiy tartibda elektr bilan ta'minlanishi kerak.</p> <p>Qabristonlarda kirish joyi (eshigi), bosh xiyobonlar va asosiy yo'llar yoritilishi lozim.</p> <p>Yoritish fonarlari ustunlari xiyobon yoki yo'lning bir tomonida, uning chetidan boshlab 1,0 – 1,5 metr masofada o'rnatilishi kerak. Havo elektr liniyasi ustunlari yoki fonarlar o'rtasidagi masofa 40 – 50 metr bo'lishi zarur.</p> <p>Har bir marhum alohida qabrga dafn etiladi. Qarindoshlarning xohishiga ko'ra uni marhumning qabriston muddati (tuproq xususiyatiga qarab 10 – 20 yil) tugagan yaqin qarindoshlari qabriga, qabrning pastiga ko'mish yo'li bilan dafn etish mumkin, bunda tegishli hujjatlar taqdim etiladi.</p> <p>Qabrlar oralig'idagi masofa uzun tomonlari bo'yicha 1 metrdan, qisqa tomonlari bo'yicha esa – 0,5 metrdan ko'p bo'lmasligi kerak.</p> <p>Har bir alohida qabr uchun o'lchami o'rtacha 2 x 1 m bo'lgan uchastka ajratiladi. Qabrning chuqurligi dafn etish usuli, diniy xususiyatlarga bog'liq holda va mahalliy tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib belgilanadi. Vafot yetgan bolalarni dafn etishda qabr uchun uchastkaning o'lchamlari tegishli ravishda kamaytirilishi mumkin.</p> <p>Har bir qabr ustidan ("sag'analar"dan tashqari) er sathidan 0,5 metr balandlikda tuproq ko'tarma (tepacha) (ko'tarma qabrnii yer usti suvlaridan himoya qilish uchun undan chetga chiqishi kerak) yoki qabr usti</p>		

Nº	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*	
		<p>plitasi bo‘lishi kerak. Yer sathida “sag‘ana” ko‘rinishida barpo etiladigan musulmon qabrlari (yer osti suvlari sathi yuqori bo‘lganda) yer usti suvlari va atmosfera yog‘inlaridan himoyalangan bo‘lishi kerak, buning uchun himoya qatlami barpo etilishi kerak va “sag‘ana” o‘lchamlarining yer sathida bo‘yiga ko‘ra 2,5 metrgacha, eni bo‘yicha 1,5 metrgacha va “sag‘ana” asosidan boshlab balandligi 1,5 metrgacha bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi, yozuvlar uchun qabr ustidagi vertikal plita balandligi 1 metrgacha bo‘lishi lozim.</p> <p>Alohiba dafn etishga ajratilgan uchastka doirasida, tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi (fuqarolarga xizmat ko‘rsatish boshqarmasi) va qabriston ma’muriyati bilan kelishgan holda, uzunligi 1,5 metr, eni 1 metr va balandligi 0,5 metr (qabr ustidagi tuproq tepaligi balandligi darajasida), yozuvlar uchun vertikal plitaning balandligi 1 metrgacha bo‘lgan o‘lchamda qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish (qurish)ga yo‘l qo‘yiladi (yer osti suvlari sathi yuqori bo‘lgan yer yuzasida “sag‘ana” ko‘rinishida barpo yetiladigan musulmon qabrlaridan tashqari).</p> <p>Qabr atrofida metalldan yasalgan va boshqa to‘sislarni o‘rnatish (o‘simliklardan iborat yashil to‘sislardan tashqari), qo‘sni qabrlarning hududlarini va bo‘sh yer uchastkalarini egallab oladigan qabr usti yodgorliklarini barpo etish taqiqlanadi.</p>			
Transport va ko‘cha-yo‘l tarmoqlari standartlari					
10.	Ko‘chalar, yo‘llar va qishloqlar maydonlarining yoritilganligi. <i>(QMQ 2.01.05-2019) (ShNQ 2.04.18-22)</i>	Tuman joylarda transport qatnoviga ega ko‘chalar, yo‘llar va maydonlarni sifati yaxshilangan qoplamlarning o‘rtacha ravshanligi me’yoridan kelib chiqib, loyihalash lozim.	Kattaqo‘rg‘on tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi, Kattaqo‘rg‘on tumani	Har oy	

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
		<p>Yoritgichlar tayanchlarda bir donadan o'rnatilgan bo'lsa, tungi vaqtarda yoritgichlarning qisman o'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Ko'chalar, yo'llar va qishloqlarning maydonlari qoplamlarining o'rtacha gorizontal yoritilganligi quyidagicha bo'lishi shart:</p> <ul style="list-style-type: none"> - asosiy ko'cha jamoat va savdo markazlari maydoni – 4 lk; - turar joy imoratlari qurilishi ko'chalarining asosiy qismi – 4 lk, ikkinchi darajali (tor ko'cha) – 2 lk, qatnov yo'li – 2 lk; - tuman turidagi qishloq yo'li – 2 lk; - dala-bog' shirkati va dala hovli shirkatlari hududlarida asosiy qatnov yo'llarining o'rtacha yoritilganligi – 2 lk, qolgan qatnov yo'llari uchun – 1 lk; - qishloq joylarning turar joy zonasidan tashqarida joylashgan xo'jalik imoratlar va omborxonalar bloklari hududida bino qurilishlari qatori va qatnov yo'llari orasidagi o'rtacha yoritilganlik – 1 lk bo'lishi shart. <p>Shuningdek, ko'chalar, yo'llar va dahalar (mikro rayon) hududidagi maydonlar tayanchlarga o'rnatiladigan yoki troslarga mahkamlab osiladigan yoritgichlar bilan yoritiladi.</p> <p>Turar joy binolarining derazalariga tashqi yoritkichlardan yorug'lik tushishishni cheklash maqsadida derazalar yo'nalishida yorug'lik kuchi cheklangan yoritgichlar yoki to'sib turuvchi panjaralarga ega bo'lgan yoritgichlar qo'llaniladi.</p> <p>Tashqi yoritishda tizimlarida energiya samarador lampalarni qo'llash talab etiladi.</p>	<p>Obodonlashtirish boshqarmasi</p>	

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
		<p>Energiya ko‘p iste’mol qiluvchi lampalar (DPL, DNAT) hamda qo‘zg‘alma lampalarni qo‘llash mumkin yemas.</p> <p>Tashqi yoritishda yoritish mahsuldorligi 100 lm/W dan kam bo‘limgan lampalardan foydalanish lozim.</p> <p>Ko‘cha va yo‘llar tarmog‘i, turar joylarning hududlari hamda boshqa yoritiladigan maydonlar tashqi yoritgichlarini kechki vaqtida tabiiy yorug‘lik darajasi 20 lx dan kamayganda ishga tushirish va ertalab tabiiy yorug‘lik darajasi 10 lx dan oshganda o‘chirish lozim.</p>		
11.	<p>Mahalliy ahamiyatdagi ko‘cha-yo‘llarning belgilangan talablarga muvofiqligi.</p> <p>(ShNQ 2.07.06-24, 25.06.2024 y)</p>	<p>Hududning relyefi va joylashuviga ko‘ra ko‘cha-yo‘l kengligi turli o‘lchamlarda bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.</p> <p>Ko‘chaning uzunligini 300 m dan 600 m gacha loyihalashga yo‘l qo‘yiladi.</p> <p>Harakat jadalligini kamida 500 avt/h dan 1500 avt/h gacha ta’minalash lozim.</p> <p>Piyodalar harakatini ta’minalashda yo‘l bo‘ylab piyoda yo‘laklarini yo‘lning harakat tasmasidan 20 – 30 sm balandlikda alohida qilib loyihalash lozim.</p> <p>Ko‘cha-yo‘l bo‘yida parallel vaqtinchalik avtoturargohlar joylashtirilganda kesishmalarda avtotransport erkin harakatlanishini ta’minalashga yeterli maydon bilan loyihalanishi lozim.</p>	<p>Kattaqo‘rg‘on tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi, Kattaqo‘rg‘on tumani Obodonlashtirish boshqarmasi</p>	Har oy
Maktabgacha va maktab ta’limi muassasalari standartlari				
12.	<p>Bolalarning yashash joyidan maktabgacha va maktab ta’lim muassasalariga borish masofasi.</p> <p>(ShNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y)</p>	<p>Bolalarning yashash joyidan maktabgacha va maktab ta’lim muassasalariga borish masofasi quyidagi normativlarda bo‘lishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - maktabgacha ta’lim muassasalari tumanlarda 300 metr radiusda hamda qishloqlarda 500 metrgacha radiusda; - umumta’lim o‘quv maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tumanlarda 300 - 500 metr, 	<p>Kattaqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi</p>	Har oy

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
		qishloqlarda 500 - 750 metrgacha radiusda; - umumta'lism o'quv maktablari yuqori sinf o'quvchilari uchun tumanlarda 500-750 metr, qishloqlarda 750 - 2000 metrgacha radiusda.		
13	Maktabgacha ta'lism tashkilotlarining qamrov darajasiga qo'yilgan talablari. <i>(ShNQ 2.07.01-23, 20.05.2024-y.)</i>	Maktabgacha ta'lism tashkilotlarining sig'imi aholining demografik tarkibidan kelib chiqib, maktabgacha ta'lism tashkilotlari bilan qamrab olish darjasasi 1 – 5 yoshdagi bolalarni — 85 foiz, 5 yoshdan katta bolalarni esa — 100 foiz miqdorda qabul qilinishi kerak.	Kattaqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'lism bo'limi	Har oy
14	Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalar uchun guruuhlar miqdoriga qo'yilgan talablarga rivoja qilinishi. <i>(VMQ-391-son, 13.05.2019 y.)</i>	Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida guruuhlar quyidagi miqdorda to'ldiriladi: – 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan guruhlarda – ko'pi bilan 30 nafar bola; – bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlarda – ko'pi bilan 30 nafar bola; – turli yoshdagi guruhlarda – ko'pi bilan 25 nafar bola; – bolalar kecha-kunduz bo'ladigan guruhlarda – ko'pi bilan 10 nafar bola.	Kattaqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'lism bo'limi	Har oy
15	Umumta'lism muassasalarining sinflariga qo'yilgan talablarga rivoja qilinishi <i>VMQ-140-son, 15.03.2017-y.)</i>	Belgilangan me'yorlar bo'yicha tegishli maydonga ega bo'lgan umumta'lism muassasasining sinflari to'liqligi 35 nafardan ortib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.	Kattaqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'lism bo'limi	Har oy
16.	Bolalar o'yinlari, sport o'yinlari va jismoniy tarbiya-sport mashg'ulotlari maydonchalarining mavjudligi. <i>(ShNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y)</i>	Jismoniy tarbiya-sport inshootlari aholi punktlarining barcha turar-joy hududlarida, shuningdek, tuman atrofidagi yashil zonalarda joylashtirilishi kerak. Bolalar o'yinlari, sport o'yinlari va jismoniy tarbiya-sport mashg'ulotlari maydonchalari 1000 kishiga 0,31 ga maydonda mavjud bo'lishi lozim.	Kattaqo'rg'on tumani sport bo'limi	Har oy
17	Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida o'yin maydonchalarining eng kam (minimal) jihozlar bilan	Har bir bog'cha uchun 1 dona ayvoncha bo'lishi hamda bolalar ko'ngilochar majmuasining quyidagi to'plamlar to'liq bo'lishi lozim:	Kattaqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'lism bo'limi	Har oy

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
	ta'minlanganligi. (VMQ-802-son, 22.12.2020 y.)	<ul style="list-style-type: none"> - 1 dona qum qutisi (qumdon); - 500 kg qum quyish qutilari uchun qum; - 1 dona ertaksimon uyalar; - 1 dona sirpanchiq; - 1 dona arg'imchoq; - 1 dona mavzuli uycha; - 1 dona shved gimnastik narvonchasi. 		
18.	<p>Maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari atrofida yo'l harakati qoidalariiga rioya etilayotganligi hamda yo'l belgilari o'rnatilganligi. (VMQ-172-son, 12.04.2022-y) (O'z DSt 3644:2023 "Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari. Piyodalar o'tish joylari. Tasnif. Umumiy talablar" O'zbekiston Respublikasining davlat standarti)</p>	<p>Maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari atrofidagi yo'llarda 300 metrgacha bo'lgan masofada 30 kilometrdan oshirmsandan harakatlanishga ruxsat etiladi.</p> <p>Shuningdek, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari atrofidagi yo'llarda Yo'l harakati qoidalariida belgilangan quyidagi talablar bo'lishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - bolalar muassasasi (maktablar, bolalarning dam olish maskanlari va shunga o'xshashlar)ga yaqin yo'lning qatnov qismidan bolalarning chiqib qolish ehtimolini bildiruvchi – "Bolalar" yo'l belgisi; - maktab yoki maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldida o'rnatiladi "Maktab" axborot-ko'rsatgich belgisi; - maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari oldida piyodalarning o'tish joyini belgilovchi oq-qizil rangli yo'l chizig'i; - maktablarga yaqin yo'lning qatnov qismidan maktab o'quvchilarning chiqib qolish ehtimolini inobatga olgan holda mакtablar joylashgan hududlar oldida yo'l chizig'i. 	Viloyat IIB JXX YHXB Maxsus ekspluatatsiya- montaj bo'limi, Kattaqo'rg'on tumani YHXB	Har oy
19	Shahar va tuman parklari hamda dam olish ahamiyatiga ega zonalarga jamoat transportida qulay vaqtida borish imkoniyati mavjudligi.	Jamoat transportida (transportni kutish vaqtini hisoblamaganda) shahar va tuman parklariga yetib olish vaqtি 20 daqiqadan oshmasligi zarur. Dam olish ahamiyatiga ega zonalarda joylashgan	Kattaqo'rg'on tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish,	Har oy

№	Standart nomi va huquqiy asosi	Belgilangan standart	Ma'sul tashkilot	Muddati*
	(ShNQ -2.07.01-03, 23.12.2009-y.)	aholining qisqa muddatli ommaviy dam olish obyektlarini joylashtiruv tartibi bu zonalariga jamoat transportida yetib olishni hisobga olib, odatda, ko'pi bilan 1,5 soatni nazarda tutish zarur.	kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari	
Fuqaroviylar obyektlar joylashuvi standartlari				
20.	Dorixonalar, bank filiallari, aloqa bo'limlarining qulay joylashuvi. (ShNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y)	Dorixonalar, bank filiallari, aloqa bo'limlari tumanlarda 500 metrgacha va qishloqlarda 2000 metrgacha yoki transport bilan 30 daqiqada borish imkoniyati bo'lishi lozim.	Kattaqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi, Ma'sul banklar	Har oy
21	Tibbiy punkt, shifokor pediatriya punkti (poliklinika, ambulatoriya filiali)larning mavjudligi. (ShNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y.)	Tibbiy punkt, shifokor pediatriya punkti (poliklinika, ambulatoriya filiali) 3-5 ming kishiga 1 ta mavjud bo'lishi lozim.	Kattaqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi	Har oy

* Kengash tomonidan tasdiqlangan reja-grafik asosida "Huquqiy mahalla" konsepsiysi o'tkaziladigan mahallalarda birlamchi minimal standartlar o'rGANILADI.

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
 Kengashining
 2025-yil 5-martdagi
 VII-7-34-7-96-K/25 -son qaroriga
 2-ilova

**Kattaqo‘rg‘on tumanida 2025-yilda “Huquqiy mahalla” konsepsiyasini amalga
 oshirish**

REJA GRAFIGI

Hudud nomi	Rejalashtirilgan oy	Mahalla nomi	Xonodon soni	Aholi soni
Kattaqo‘rg‘on tumanı	Yanvar	Chig‘atoy	661	3865
	Fevral	Jumaboy	817	4887
	Mart	Nisbat	723	3607
	Aprel	Oyjon	553	2912
	May	Kadan	1025	5078
	Iyun	Mullako‘rpa	804	4085
	Iyul	M.Ulug‘bek	796	3595
	Avgust	Charog‘on	629	3731
	Sentabr	Do‘slik	587	3093
	Oktabr	A.Navoiy	675	7056
	Noyabr	Bog‘ot	808	3752
	Dekabr	Madrasa	742	3141
JAMI			8820	48802